

NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar oyi


Xizmatlar ko'rsatishning sifati va qulayligini tubdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan keng ko'lamlı tashkiliyhuquqiy chora-tadbirlar hamda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish xizmatlar sohasining jadal rivojlanishini ta'minlamoqda.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining asosiy vazifalari va yo'nalishlarini amalga oshirish jarayonida, 2018 yil yanvar oyida bozor xizmatlari hajmi 4,2 % ga oshib, 424,9 mlrd.so'mgacha ko'paydi.

Aholi tomonidan har xil turdagi xizmat ko'rsatish turlariga bo'lgan talabning doimiy o'sishi va davlat tomonidan ushbu sohaga aloqador infratuzilmalarni (ijtimoiy, transport-kommunikatsiya, ta'lim va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan amaliy choralar xizmatlar sohasining barcha tarmoqlarini jadal rivojlanishini ta'minladi (1-rasm).

1- rasm

2018 yil yanvar oyida alohida xizmat turlarining o'sishi



Masalan, Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari jadal rivojlanib, o'tgan 2017 yilga nisbatan 22,2 % ga oshgan. Telekommunikatsiya tarmoqlari, kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va rekonstruksiya qilish milliy dasturlarining amalga oshirilishi, simsiz telefon aloqalarning o'sishiga, uyali aloqa abonentlari va Internet tarmog'iga jamoaviy ulanish joylari sonining ko'payishiga olib kelmoqda.


Sog'liqni saqlash hamda ta'lim soxasini isloh qilinishi sog'liqni saqlash (10,6 %) va ta'lim xizmatlari (10,8 %) oshish imkonini berdi.

Hozirgi vaqtda, xizmatlar ishlab chiqarish iste'molchilarning daromadlari darajasi, didi va nimani afzal ko'rishlariga qarab tabaqalanib bormoqda.

Hajmlarning o'sishi bilan birga, bozor xizmatlarining tarkibiy nisbatlari ham o'zgardi.

2018 yil yanvar oyida xizmatlar tarkibi

Xizmatlar umumiy hajmida yangi bozor xizmatlarining ulushi ko'paydi. Xususan, 2018 yil yanvar oyida savdo xizmatlarining ulushi 36,3 % ni, transport xizmatlarining ulushi 21,0 % ni, moliyaviy xizmatlar ulushi 8,5 % ni, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 7,9 % ni, ta'lim sohasidagi xizmatlar 3,4 % ni, boshqa turdagi xizmatlar ulushi 21,0 % ni tashkil qildi (2-rasm).



2018 yil yanvar oyida hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish

Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Namangan shahriga 202,1 mlrd.so'm (105,9 %) va To'raqo'rg'on tumaniga 23,5 mlrd.so'm (104,1 %) to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning 47,6 % dan ortig'i Namangan shahriga, Pop tumani (6,2 %), To'raqo'rg'on tumani (5,5 %), Chust tumani (5,2 %), Yangiqo'rg'on tumani (5,1 %) xissasiga to'g'ri keldi.


Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish
(2018 yil yanvar oyi)

| | <i>Жами</i> | | |
|--------------------------|-----------------|---|---|
| | <i>млрд.сўм</i> | <i>2017 y. yanvarga nisbatan foizda</i> | <i>Jami xizmatlar hajmiga nisbatan % da</i> |
| Namangan viloyati | 424,9 | 104,2 | 100,0 |
| <i>shahar:</i> | | | |
| Namangan | 202,1 | 105,9 | 47,6 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Mingbuloq | 15,1 | 102,0 | 3,5 |
| Kosonsoy | 21,2 | 102,3 | 5,0 |
| Namangan | 20,4 | 102,0 | 4,8 |
| Norin | 16,5 | 102,1 | 3,9 |
| Pop | 26,5 | 103,8 | 6,2 |
| To'raqo'rg'on | 23,5 | 104,1 | 5,5 |
| Uychi | 19,0 | 102,7 | 4,5 |
| Uchqo'rg'on | 18,4 | 102,6 | 4,3 |
| Chortoq | 18,3 | 102,3 | 4,3 |
| Chust | 22,3 | 103,7 | 5,2 |
| Yangiqo'rg'on | 21,8 | 102,5 | 5,1 |

Xizmatlar ishlab chiqarishda kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va yirik sub'ektlarning o'rni

(2018 yil yanvar oyi)

3- rasm



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan xizmatlar ishlab chiqarish 2018 yil yanvar oyida 306,0 mlrd.sum yoki jami hizmat korsatish hajmning 72,0 foizini, yirik korxonalar ulushi esa 28,0 foizni tashkil etdi. 2017 yil huddi shu davrda 272,8 mlrd.sum yoki jami hizmat korsatish hajmning 74,9 foizini, yirik korxonalar ulushi esa 25,1 foizni tashkil etdi.

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: B.Zununov

(69) 227-85-28